

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

## RASMIY STATISTIKA TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 7-mayda  
qabul qilingan  
Senat tomonidan 2021-yil 26-iyunda  
ma'qullangan

### 1-bob. Umumiy qoidalar

#### 1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

#### 2-modda. Ushbu Qonunning qo'llanilish sohasi

Ushbu Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o'rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu Qonunning amal qilishi rasmiy statistika sifatida qaralmaydigan statistikaga nisbatan tatbiq etilmaydi.

#### 3-modda. Rasmiy statistika to'g'risidagi qonunchilik

Rasmiy statistika to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistika to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

#### 4-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**identifikator** — statistik birlikni uning nomi, geografik joylashuvi yoki boshqa o'ziga xos xususiyatlari asosida identifikatsiyalash imkonini beruvchi belgilar ketma-ketligi;

**individual ma'lumotlar** — statistik birlikni tavsiflovchi, uni bevosita yoki bilvosita identifikatsiyalash imkonini beruvchi birlamchi ma'lumotlar;

**ma'muriy ma'lumotlar** — davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan o'z vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq shakllantiriladigan ma'lumotlar;

**metama'lumotlar** — foydalanuvchilarga ma'lumotlarning manbalari, uslubiyatlari, ta'riflari, tasniflari va sifati to'g'risida axborot taqdim etish yo'li bilan statistika ma'lumotlarini hamda jarayonlarini standartlashtirilgan tarzda tavsiflovchi ma'lumotlar;

**milliy statistika tizimi** — rasmiy statistikani birgalikda tayyorlaydigan va tarqatadigan davlat statistika organlari hamda rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari majmui;

**rasmiy statistikani tayyorlovchi** — milliy statistika tizimining bir qismi bo'lgan, statistika ma'lumotlarini rasmiy statistika sohasidagi statistika dasturlariga muvofiq tayyorlaydigan davlat boshqaruvi organi va (yoki) uning bo'linmasi;

**statistika ma'lumotlari** — statistika kuzatuvlari natijasida va (yoki) ma'muriy ma'lumotlar asosida tayyorlangan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik xususiyatga hamda boshqa xususiyatga ega axborot;

**statistika ma'lumotlarini tayyorlash** — statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlash bilan bog'liq faoliyat;

**statistik birlik** — statistika kuzatuviga olinishi lozim bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxs (shu jumladan uning alohida bo'linmalari, filiallari va vakolatxonalarini) yoxud uy xo'jaligi;

**tasniflash** — rasmiy statistika sohasida qabul qilingan usullar va belgilarga muvofiq obyektlar to'plamini o'xshashligi yoki farqi bo'yicha alohida kichik to'plamlarga ajratish.

### **5-modda. Rasmiy statistika**

Rasmiy statistika ushbu Qonunning qoidalariga muvofiq davlat statistika organlari va rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan tayyorlanadigan hamda tarqatiladigan statistika ma'lumotlaridan iboratdir.

### **6-modda. Rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari**

Rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

mustaqillik

tushunarlilik va shaffoflik;

aniqlik va ishonchlilik;

beg'arazlik va xolislik;

statistik maxfiylik;

dolzarblik.

## **2-bob. Rasmiy statistika sohasini tartibga solish**

### **7-modda. Rasmiy statistika sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari**

Rasmiy statistika sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

milliy statistika tizimining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish;

milliy statistika tizimining infratuzilmasini takomillashtirish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

xalqaro hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlash.

### **8-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining rasmiy statistika sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

rasmiy statistika sohasidagi davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlaydi;

rasmiy statistikani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi;

rasmiy statistika sohasidagi davlat dasturlarining (bundan buyon matnda statistika dasturlari deb yuritiladi) ishlab chiqilishini, tasdiqlanishini va amalga oshirilishini ta'minlaydi;

rasmiy statistika sohasining maqsadli davlat dasturlari bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlash choralarini ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **9-modda. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy statistika sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy statistika sohasidagi vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Vakolatli davlat organi:

rasmiy statistika sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi;

statistika dasturlarining ishlab chiqilishini muvofiqlashtiradi va amalga oshirilishini monitoring qiladi;

rasmiy statistikani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari bilan birgalikda amalga oshiradi;

rasmiy statistikani rivojlantirish masalalari bo'yicha faoliyatni milliy statistika tizimi doirasida muvofiqlashtiradi;

rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarini xalqaro tavsiyalarga muvofiqligi yuzasidan auditdan o'tkazadi;

statistika uslubiyatlarini va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika kuzatuvlarining shakllarini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi hamda joriy etadi;

rasmiy statistikani tayyorlovchilar bilan statistika ma'lumotlari va metama'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yadi;

statistika kuzatuvlarini o'tkazish, rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirish va tahlil qilish maqsadida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining axborot tizimlari bilan uyg'unlashuvni amalga oshiradi;

statistika kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish, shuningdek boshqa statistika maqsadlarida foydalanish uchun statistika registrlarini ishlab chiqadi hamda yuritadi;

rasmiy statistika sohasidagi tashkiliy va uslubiyatga oid ishlarni amalga oshirish maqsadida maslahatlashuv va ishchi guruhlar tuzadi;

milliy statistika tizimi doirasida rasmiy statistika ma'lumotlarini muvofiqlashtirilgan holda tarqatish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi;

rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari bilan kelishilgan holda rasmiy statistika sohasidagi yagona atamalarni ishlab chiqadi;

rasmiy statistika sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini muvofiqlashtiradi;

rasmiy statistika sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

### **10-modda. Statistika kengashi**

Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo'yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo'yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

Statistika kengashining tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Vakolatli davlat organining tegishli bo'linmasi Statistika kengashining ishchi organidir.

### **11-modda. Rasmiy statistikani tayyorlovchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish**

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsiya etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o'z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko'ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma'lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bo'linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'zlarida mavjud bo'lgan statistika ma'lumotlarini va (yoki) ma'muriy ma'lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

### **3-bob. Rasmiy statistikani tayyorlovchilarning, respondentlarning, ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilarning hamda rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning huquq va**

## **majburiyatlari**

### **12-modda. Rasmiy statistikani tayyorlovchilar**

Davlat statistika organlari rasmiy statistikaning asosiy tayyorlovchilaridir.

Statistika dasturlariga rasmiy statistikani tayyorlovchilar sifatida kiritilgan davlat boshqaruvi organlari rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilaridir.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar ushbu Qonunga va statistika dasturlariga muvofiq rasmiy statistikani tayyorlashni, tarqatishni hamda muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

### **13-modda. Davlat statistika organlari**

Vakolatli davlat organi, Qoraqalpog'iston Respublikasining, viloyatlarning va Toshkent shahrining statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo'limlari davlat statistika organlaridir.

Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari davlat statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Qoraqalpog'iston Respublikasining, viloyatlarning va Toshkent shahrining statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo'limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo'lib, bevosita vakolatli davlat organiga bo'ysunadi.

Davlat statistika organlarini moliyalashtirish va ularning moddiy-texnika ta'minoti statistika dasturlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

### **14-modda. Davlat statistika organlarining huquq va majburiyatlari**

Davlat statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma'lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;

statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o'tkazish va olingan birlamchi ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;

jismoniy shaxs bo'lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag'batlantirishni amalga oshirish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni so'rash hamda olish;

rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo'lgan statistika ma'lumotlarini yig'ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;

statistika ma'lumotlarini yig'ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;

statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralarini qonunga muvofiq o'z vakolatlari doirasida qo'llash.

Davlat statistika organlari qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Davlat statistika organlari:

rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etilishini va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika uslubiyatlarining birligini ta'minlashi;

mamlakatni, hududlarni, tarmoqlar va sohalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarining bajarilishi jarayoni yuzasidan statistika kuzatuvlarini tashkil etishi;

statistika ma'lumotlarini yig'ishni, uy xo'jaliklarining statistika kuzatuvlarini, ro'yxatga olishlarni, bir marotabalik hisobga olishlarni, tanlanma so'rovlarni va boshqa statistika kuzatuvlarini

o'tkazishni tashkil etishi hamda ta'minlashi;

statistika dasturlarining bajarilishini ta'minlashi;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini statistika ma'lumotlari bilan ta'minlashi;

xalqaro va mintaqalararo statistik qiyoslashlarni amalga oshirishi;

statistika maqsadlarida foydalanish uchun statistika registrlari va tasniflash tizimining yuritilishini ta'minlashi shart.

Davlat statistika organlarining zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

### **15-modda. Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining huquq va majburiyatlari**

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari quyidagi huquqlarga ega:

birlamchi ma'lumotlar manbalarini tanlash, rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni bevosita respondentlardan olish va yig'ish;

jismoniy shaxs bo'lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag'batlantirishni amalga oshirish;

respondentlar uchun birlamchi ma'lumotlarni yig'ish usullarini belgilash.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari qonunchilikka muvofiq o'zga huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari:

rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga rioya etilishini va xalqaro tavsiyalarga muvofiq bo'lgan statistika uslubiyatlarining birligini ta'minlashi;

statistika dasturlarining bajarilishini ta'minlashi;

statistikaning sifati ta'minlanishini, ma'lumotlarni taqdim etishga doir xarajatlarni va respondentlarning zimmasidagi vazifalarni hisobga olgan holda birlamchi ma'lumotlarni yig'ishni amalga oshirishi;

yig'ilgan ma'lumotlarga ushbu Qonun hamda "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuni](#) qoidalariga muvofiq ishlov berishi, ularni tarqatishi va saqlashi;

respondentlarni o'tkazilayotgan statistika kuzatuvlarining maqsadi va huquqiy asoslari to'g'risida, shuningdek ularning huquqlari, majburiyatlari va olinadigan individual ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlanishi haqida xabardor qilishi shart.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari zimmasida qonunchilikka muvofiq o'zga majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

### **16-modda. Respondentlar**

Rasmiy statistikani tayyorlovchilarga individual va boshqa ma'lumotlarni statistika maqsadlarida taqdim etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs respondentdir.

Respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilardan statistika kuzatuvlarining maqsadi va huquqiy asoslari to'g'risida tushuntirishlar hamda ma'lumotlar, shuningdek olingan individual ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlanishi haqida axborot olishga haqli.

Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o'tkazish chog'ida respondentlar, bundan ushbu moddaning beshinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno:

rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to'liq ma'lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi;

agar taqdim etilgan ma'lumotlar o'z xulosalariga yoki rasmiy statistikani tayyorlovchilarning xulosalariga ko'ra to'g'ri, dolzarb va (yoki) to'liq bo'lmasa, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tomonidan belgilangan muddatlarda ma'lumotlarni tuzatishi, yangilashi, to'ldirishi hamda ularga taqdim etishi shart.

Respondentlar statistika ma'lumotlarini rasmiy statistikani tayyorlovchilarga qog'oz shaklida yoki elektron shaklda taqdim etishi mumkin. Bunda statistika ma'lumotlarini yig'ish usullari rasmiy statistikani tayyorlovchilar tomonidan belgilanadi.

Mamlakatni demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ayrim yo'nalishlari bo'yicha o'tkaziladigan ro'yxatga olishlarda ishtirok etuvchi respondentlar ro'yxatga olish varag'ining shakliga binoan ishonchli individual ma'lumotlarni taqdim etishiga haqli hamda ro'yxatga olishlarni o'tkazish jarayonlariga monelik qilmasligi shart.

### **17-modda. Ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar**

Ma'muriy ma'lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchilarga taqdim etuvchi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilardir.

Jismoniy va yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar bazalariga ega bo'lgan ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

o'z vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan individual ma'lumotlarni ma'muriy maqsadlarda shakllantirish;

ma'muriy ma'lumotlarni shakllantirish uchun birlamchi ma'lumotlar manbalarini tanlash;

ma'lumotlarni yig'ish usullarini belgilash, zarur bo'lgan ma'lumotlarni bevosita jismoniy yoki yuridik shaxslardan, uy xo'jaliklaridan olish va yig'ish.

Jismoniy va yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar bazalariga ega bo'lgan ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga:

o'z tasarrufida mavjud bo'lgan ma'muriy ma'lumotlarni;

statistika ma'lumotlari sifatini baholash imkonini beruvchi metama'lumotlarni bepul taqdim etishi shart.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ma'muriy ma'lumotlarni taqdim etish bir yillik statistika dasturida belgilangan shakllar va davriylik bo'yicha amalga oshiriladi.

### **18-modda. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar**

Jismoniy va yuridik shaxslar (shu jumladan ularning alohida bo'linmalari, filiallari va vakolatxonalarini) rasmiy statistikadan foydalanuvchilar bo'lishi mumkin.

Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar quyidagi huquqlarga ega:

rasmiy statistikani tayyorlovchilarning rasmiy veb-saytlarida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan statistika ma'lumotlaridan erkin foydalanish;

rasmiy veb-saytlarda va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinmagan ochiq statistika ma'lumotlarini olish maqsadida rasmiy statistikani tayyorlovchilarga so'rov bilan yoki ularni e'lon qilish to'g'risidagi taklif bilan murojaat qilish.

Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar o'z mahsulotlarida (ishlarida va xizmatlarida) o'zi foydalangan statistika ma'lumotlarining manbalarini ko'rsatishi shart.

Individual ma'lumotlardan va maxfiy ma'lumotlardan ilmiy-tadqiqot maqsadlarida foydalanish ushbu Qonunning 30 va 31-moddalarida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

## **4-bob. Statistika dasturlari, kuzatuvlari va registrlari, ro'yxatga olishlar, ularni tuzish va tasdiqlash tartibi**

### **19-modda. Statistika dasturlari**

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari, rasmiy statistikadan foydalanuvchilar, respondentlar va ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikda statistika dasturlarining tayyorlanishini ta'minlaydi.

Statistika dasturlari ko'rib chiqish uchun Statistika kengashiga kiritiladi.

Vakolatli davlat organi milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari bilan birgalikda statistika dasturlarining bajarilishini ta'minlaydi.

Statistika dasturlari ko'p yillik va bir yillik bo'lishi mumkin.

### **20-modda. Ko'p yillik statistika dasturi**

Ko'p yillik statistika dasturi umuman milliy statistika tizimi uchun ishlab chiqiladi va rasmiy statistikaning strategik rivojlanish yo'nalishlarini belgilaydi.

Ko'p yillik statistika dasturi milliy statistika tizimini rivojlantirish konsepsiyasidan, strategik maqsadlaridan va ustuvor yo'nalishlaridan, shuningdek rasmiy statistikasini rivojlantirishga doir dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirish mexanizmlaridan iboratdir.

### **21-modda. Bir yillik statistika dasturi**

Bir yillik statistika dasturi ko'p yillik statistika dasturini bajarish maqsadida ishlab chiqiladi.

Bir yillik statistika dasturida quyidagi vazifalar nazarda tutiladi:

rasmiy statistikani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

rasmiy statistikani tayyorlovchilar tomonidan o'tkazilishi lozim bo'lgan statistika kuzatuvlarini tashkil etish;

ma'muriy ma'lumotlarni tayyorlash va rasmiy statistikani tayyorlovchilarga taqdim etish;

statistika registrlarini ishlab chiqish va yuritish;

rasmiy statistikani tarqatish.

Bir yillik statistika dasturi har bir rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan ishlab chiqiladigan va tarqatiladigan statistika ma'lumotlarining ularni bajarish davriyligi hamda muddatlari ko'rsatilgan holdagi ro'yxatini o'z ichiga oladi.

### **22-modda. Statistika dasturlarini tasdiqlash va moliyalashtirish**

Ko'p yillik va bir yillik statistika dasturlari Statistika kengashi tomonidan ko'rib chiqilganidan keyin vakolatli davlat organi ularni tasdiqlash uchun tegishincha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

Ko'p yillik statistika dasturlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, bir yillik statistika dasturlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan tasdiqlanadi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilarga statistika dasturlarini bajarish uchun moliyaviy va moddiy-texnika resurslari beriladi.

Statistika dasturlarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

Statistika dasturlariga kiritilmagan ishlarni moliyalashtirish mazkur ishlarni bajarish tashabbusi bilan chiqqan jismoniy va yuridik shaxslarning mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

### **23-modda. Statistika kuzatuvlari**

Statistika kuzatuvlari respondentlarning individual va boshqa ma'lumotlarini birlamchi yig'ish jarayonlari bo'lib, bu jarayonlar rasmiy statistikani tayyorlovchilar tomonidan statistika uslubiyatlaridan foydalangan holda, statistika maqsadlarida amalga oshiriladi.

Statistika kuzatuvlari yalpi va tanlanma bo'lishi mumkin, shuningdek statistika dasturlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Yalpi statistika kuzatuvlari vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan statistika hisoboti shakllari asosida o'tkaziladi.

Tanlanma statistika kuzatuvlari rasmiy statistikani tayyorlovchilar tomonidan tasdiqlangan statistika kuzatuvlari shakllari asosida o'tkaziladi. Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tomonidan o'tkaziladigan tanlanma statistika kuzatuvlarida respondentlar va uy xo'jaliklari ixtiyoriy asosda ishtirok etadi.

### **24-modda. Ro'yxatga olishlar**

Ro'yxatga olish yalpi hisobga olish asosida aholining, uy-joyning soni va tarkibi, iqtisodiy birliklarning tarkibi hamda holati to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlar olinishini ta'minlaydigan tadbirdir.

Ro'yxatga olish mamlakatni demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ayrim xususiyatlari hamda yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilishi, shuningdek O'zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning muayyan hududlarida amalga oshirilishi mumkin.

Respondentlarning individual ma'lumotlarini yig'ish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan tasdiqlanadigan Ro'yxatga olish dasturida belgilangan savollarga muvofiq amalga oshiriladi.

Ro'yxatga olish ma'lumotlari statistika kuzatuvlari, ma'muriy ma'lumotlar asosida yoki ularning umumlashmasi asosida shakllantirilishi mumkin.

Ro'yxatga olishni o'tkazish to'g'risidagi qaror sanasi va muddati, shuningdek moliyalashtirish manbalari ko'rsatilgan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilinadi.

## **25-modda. Statistika registrlari**

Statistika maqsadlarida foydalanish uchun zarur bo'lgan statistika birliklarining va ular tavsiflarining ro'yxatlari, shu jumladan identifikatorlar statistika registrlaridir.

Jismoniy va yuridik shaxslar to'g'risidagi registrlarni va ma'lumotlar bazalarini yaratadigan hamda yuritadigan davlat organlari va ularning tasarrufidagi tashkilotlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga statistika registrlarini shakllantirish hamda o'z vaqtida yangilash uchun zarur bo'lgan axborotni bepul taqdim etadi.

## **5-bob. Statistika ma'lumotlari, ulardan foydalanish tartibi va maxfiylikni ta'minlash**

### **26-modda. Ma'muriy ma'lumotlardan foydalanish**

Ma'muriy ma'lumotlar rasmiy statistikani tayyorlovchilar tomonidan faqat statistika maqsadlarida foydalaniladi.

Ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar va boshqa yuridik shaxslar o'z tasarrufidagi mavjud ma'lumotlarni taqdim etish chog'ida maxfiylik to'g'risidagi qoidalarni vaj qilib ko'rsatishi mumkin emas, bundan qonunda ma'lumotlarni taqdim etish va ulardan statistika maqsadlarida foydalanish to'g'ridan to'g'ri istisno etilgan hollar mustasno.

### **27-modda. Individual ma'lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish**

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma'lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma'lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud muhokamasi, ma'muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo'jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

### **28-modda. Maxfiy statistika ma'lumotlari**

Rasmiy statistikani tayyorlash uchun yig'iladigan, ishlov beriladigan va saqlanadigan statistika ma'lumotlari, agar ular jismoniy yoki yuridik shaxslarni bevosita yoki bilvosita identifikatsiyalash imkonini bersa hamda ularga taalluqli individual ma'lumotlarni oshkor qilsa, maxfiy hisoblanadi.

Quyidagilar maxfiy statistika ma'lumotlari jumlasiga kiradi:

statistik birlik to'g'risidagi individual ma'lumotlar oshkor etilgan taqdirda, uni identifikatsiyalash imkonini beruvchi ma'lumotlar;

statistika ma'lumotlarining maxfiyligi ta'minlanishini talab etadigan umumlashtirilgan ko'rsatkichlar;

qonunga muvofiq davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir jumlasiga kiritilgan axborot.

### **29-modda. Rasmiy statistikaning maxfiyligiga rioya etish majburiyatini oluvchi shaxslar**

Rasmiy statistika sohasidagi vazifalar o'z zimmasiga olinayotganda uning maxfiyligiga rioya etish majburiyati:

rasmiy statistikani tayyorlovchilarning barcha shtatdagi va vaqtinchalik xodimlari;

ro'yxatga olishni o'tkazishda ishtirok etayotgan, milliy statistika tizimiga daxldor bo'lmagan shaxslar tomonidan imzolanadi.

Rasmiy statistikaning maxfiyligiga rioya etish majburiyati ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shaxslar tomonidan vazifalar bajarilishi tugaganidan keyin ham yoki maxfiylikka rioya etish to'g'risidagi imzolangan hujjatda belgilangan muddat ichida amal qilishini davom etadi.

### **30-modda. Individual ma'lumotlardan foydalanish**



O'z xizmat vazifalari doirasida rasmiy statistikani tayyorlashda ishtirok etuvchi shaxslar individual ma'lumotlardan rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo'lgan doirada foydalanadi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikadan foydalanuvchilarga individual ma'lumotlarni oshkor qilmaydi.

Agar ma'lumotlarga ishlov berishda identifikatorlarni chiqarib tashlash nazarda tutilgan bo'lsa yoki respondentlarni identifikatsiyalash mumkin bo'lmasa, individual ma'lumotlar ishlab chiqarilishi va e'lon qilinishi mumkin.

Vakolatli davlat organi normativ-huquqiy hujjatlar va taraflar o'rtasida imzolangan kelishuvlar asosida individual ma'lumotlarni, shu jumladan identifikatorlarni rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilaridan olish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar o'z vakolatlari doirasida quyidagi individual ma'lumotlarni vakolatli davlat organidan faqat statistika maqsadlari uchun olishi mumkin:

identifikatorlarsiz ma'lumotlarni;

faqat statistika registrlaridan olingan identifikatorli statistik birliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni.

Vakolatli davlat organi tomonidan individual ma'lumotlarni rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilariga taqdim etishning har bir holati imzolangan kelishuv asosida amalga oshiriladi.

### **31-modda. Maxfiy statistika ma'lumotlaridan ilmiy-tadqiqot maqsadlari uchun foydalanish**

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiruvchi shaxslarning so'roviga ko'ra ularga maxfiy statistika ma'lumotlaridan egasizlantirilgan shaklda foydalanish imkoniyatini berishi mumkin.

Ilmiy-tadqiqot maqsadlari uchun taqdim etiladigan maxfiy statistika ma'lumotlari tarkibida identifikatorlar bo'lishi mumkin emas. Maxfiy statistika ma'lumotlari ilmiy-tadqiqot maqsadlari uchun zarur bo'lgan axborot bilan cheklanadi.

Individual ma'lumotlarni himoya qilish tartibining buzilishi xavfi mavjud bo'lmasa, maxfiy statistika ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyati beriladi.

Maxfiy statistika ma'lumotlari shartnoma asosida beriladi, shartnomada ma'lumotlardan foydalanish maqsadi, shartlari va rasmiy statistikadan foydalanuvchining tadqiqot natijalari haqida xabar berishga, ma'lumotlarni e'lon qilmaslikka hamda uchinchi shaxslarga bermaslikka doir majburiyatlari ko'rsatiladi.

Shartnomada ma'lumotlarni tayyorlash natijasida yuzaga kelgan qo'shimcha xarajatlar uchun kompensatsiya sifatida haq to'lash nazarda tutiladi.

Ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida maxfiy statistika ma'lumotlari bilan ishlaydigan shaxslar respondentlarni har qanday usulda identifikatsiyalashga, uchinchi shaxslarga individual ma'lumotlarni yoki ular asosida hisob-kitob qilingan umumlashtirilgan ko'rsatkichlarni oshkor qilishga, maxfiy statistika ma'lumotlaridan shartnomada ko'rsatilgan maqsadlardan farq qiladigan maqsadlarda foydalanishga harakat qilmasligi kerak.

### **32-modda. Axborot xavfsizligini ta'minlash**

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar individual ma'lumotlarni, umumlashtirilgan maxfiy ko'rsatkichlarni himoya qilish hamda ularning oshkor etilishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha tartibga soluvchi, ma'muriy, texnik va tashkiliy tUSDagi choralarni ta'minlaydi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilarning individual ma'lumotlardan to'g'ridan to'g'ri foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan xodimlari, shu jumladan vaqtincha yollangan xodimlari tegishli lavozimdagi faoliyati vaqtida va faoliyatini tugatganidan keyin ushbu ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya etishi shart.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika maqsadlari uchun zarur bo'lgan vaqt ichida identifikatorli individual ma'lumotlarga o'zi belgilagan tartibga muvofiq ishlov berishi va ularni saqlashi mumkin.

Identifikator to'g'ridan to'g'ri identifikatsiyalashni ta'minlashi, ya'ni alohida statistik birlikni bitta identifikator yoki identifikatorlar kombinatsiyasi asosida identifikatsiyalashni ta'minlashi

mumkin.

Statistik birlikni identifikatsiyalash boshqa qo'shimcha ma'lumotlar yordamida bilvosita usullar bilan ham aniqlanishi mumkin.

Identifikatorli individual ma'lumotlarni yig'ishning barcha shakllari, shu jumladan elektron shakllari statistika maqsadlari uchun zarur bo'lmay qolishi bilan darhol yo'q qilinishi lozim.

## **6-bob. Rasmiy statistikaning sifatini ta'minlash, uni tarqatish va e'lon qilish**

### **33-modda. Rasmiy statistikaning sifatini ta'minlash**

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini ta'minlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida ma'lumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirish, ma'lumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bog'lashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy ma'lumotlar to'plamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika ma'lumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika ma'lumotlarining sifati to'g'risida metama'lumotlar yordamida xabardor qilinadi.

### **34-modda. Rasmiy statistikaning sifatini baholash**

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikadan foydalanuvchilar bilan rasmiy statistikaning sifati masalalari yuzasidan muntazam ravishda maslahatlashuvlar o'tkazadi.

Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar bilan maslahatlashuvlar quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

foydalanuvchilar o'rtasida so'rovlar o'tkazish;

statistika dasturlarining va statistika kuzatuvlari shakllarining jamoatchilik muhokamasini o'tkazish.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma'lumotlarining mazmuni va sifatini yanada yaxshilash uchun respondentlardan ushbu ma'lumotlarning mazmuni va sifati haqidagi fikrlarini so'rab oladi.

Ichki va tashqi ekspertlar milliy statistika tizimining institutsional muhiti, jarayonlari va natijalarini baholashni amalga oshirishi mumkin.

### **35-modda. Statistika uslubiyatlari**

Rasmiy statistikani tayyorlash hamda tarqatish chog'ida foydalaniladigan usullar, qoidalar va prinsiplar tizimi statistika uslubiyatlaridir.

Rasmiy statistikani shakllantirish chog'ida statistika uslubiyatini qo'llash majburiydir.

Statistika uslubiyatini tayyorlash va tasdiqlash rasmiy statistikani tayyorlovchilar tomonidan xalqaro uslubiyatlar hamda tavsiyalarga muvofiq o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladi.

Davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining, shuningdek boshqa shaxslarning statistika uslubiyatini shakllantirishga aralashishiga yo'l qo'yilmaydi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika uslubiyatini baholash va takomillashtirish maqsadida ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar o'zlari yig'adigan ma'lumotlarning mazmunini, uslubiyatini va ro'yxatini, shu jumladan ularni o'zgartirish tartibini vakolatli davlat organi bilan majburiy tartibda hamda rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari bilan ixtiyoriylik asosida kelishib oladi.

### **36-modda. Rasmiy statistikani e'lon qilish**

Rasmiy statistika mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilish va baholash hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsadida, shuningdek jamoatchilikni xabardor

qilish, rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun e'lon qilinadi.

Rasmiy statistika rasmiy statistikaning asosiy prinsiplariga to'la muvofiq holda, shuningdek ayrim statistika ma'lumotlarining maxfiylikni ta'minlash hamda barchaga teng foydalanish imkoniyatini berish orqali e'lon qilinadi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikani statistika dasturida va rasmiy statistikani e'lon qilish jadvalida nazarda tutilgan muddatlarda e'lon qilishi shart.

Tarkibida davlat sirlari va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir bo'lgan rasmiy statistika ma'lumotlari e'lon qilinmaydi hamda qonunda belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Jamoatchilik rasmiy statistikani e'lon qilish muddatining har qanday o'zgarishi to'g'risida e'lon qilishning rejalashtirilgan sanasiga qadar xabardor qilinadi.

Rasmiy statistika metama'lumotlar va tushuntiruvchi izohlar bilan birga e'lon qilinadi. Rasmiy statistikadan foydalanish rasmiy statistikani tayyorlovchilarning rasmiy veb-saytlarida va ommaviy axborot vositalarida rasmiy statistikani e'lon qilish orqali ta'minlanadi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar qo'shimcha ravishda ishlov berilgan statistika ma'lumotlarini, bosma nashrlarni va boshqa materiallarni rasmiy statistikadan foydalanuvchilarning so'roviga ko'ra pulli asosda taqdim etish huquqiga ega.

Kelgusida qayta ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan dastlabki statistika ma'lumotlari e'lon qilinganda, ular dastlabki ma'lumotlar sifatida ko'rsatiladi.

Statistika uslubiyatlaridagi o'zgarishlar tufayli kelib chiqqan o'zgarishlar to'g'risidagi axborot rasmiy statistikani tayyorlovchilarning rasmiy veb-saytida jamoatchilikni bu haqda xabardor qilish maqsadida oldindan e'lon qilinadi.

### **37-modda. Rasmiy statistikani tarqatish**

Rasmiy statistikani tarqatish vakolatli davlat organi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

## **7-bob. Yakunlovchi qoidalar**

### **38-modda. Xalqaro hamkorlik**

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar o'z vakolatlari doirasida statistika uslubiyatlarini, amal qilinadigan prinsiplar va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda joriy etish bo'yicha, shuningdek axborot ayirboshlash bo'yicha boshqa mamlakatlarning rasmiy statistikani tayyorlovchilari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.

### **39-modda. Nizolarni hal etish**

Rasmiy statistika sohasida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

### **40-modda. Rasmiy statistika to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik**

Rasmiy statistika to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

### **41-modda. Ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish**

Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

1) O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan "Davlat statistikasi to'g'risida"gi 441-II-sonli [Qonuni](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, № 12, 219-modda);

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2002-yil 12-dekabrda qabul qilingan "Davlat statistikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga kiritish haqida"gi 442-II-sonli [Qarori](#) (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-yil, № 12, 220-modda);

3) O'zbekiston Respublikasining 2005-yil 20-dekabrda qabul qilingan "Tadbirkorlik subyektlariga soliq solish va ularning hisobot berish tizimi tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-16-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005-yil, № 12, 415-modda) [3-moddasi](#);

4) O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 3-sentabrda qabul qilingan "Davlat sanitariya nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 25-moddasiga va "Davlat statistikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasiga o'zgartishlar kiritish haqida"gi O'RQ-253-sonli **Qonuni** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2010-yil, № 9, 333-modda);

5) O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Davlat statistikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-315-sonli **Qonuni** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2012-yil, № 1, 1-modda);

6) O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 29-dekabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-396-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2015-yil, № 12, 452-modda) **26-moddasi**;

7) O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-683-sonli Qonunining (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021-yil, 4-songa ilova) **145-moddasi**.

#### **42-modda. Ushbu Qonunning ijrosini, yetkazilishini, mohiyati va ahamiyati tushuntirilishini ta'minlash**

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar ushbu Qonunning ijrosini, ijrochilarga yetkazilishini hamda mohiyati va ahamiyati aholi o'rtasida tushuntirilishini ta'minlasin.

#### **43-modda. Qonunchilikni ushbu Qonunga muvofiqlashtirish**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin;

davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ-huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari va bekor qilishlarini ta'minlasin.

#### **44-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi**

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2021-yil 11-avgust,  
O'RQ-707-son

*(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.08.2021-y., 03/21/707/0780-son)*